

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DA POLISEMANTIK LEKSEMALARNI BOSH SO‘Z SIFATIDA BERISH TAMOYILLARI

Boymurodova Lobar Raxim qizi

Termiz davlat universiteti

4-bosqish talabasi

lobarboymurodova991@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida muhim o‘rin tutuvchi polisemantik leksemalarni izohli lug‘atlarda bosh so‘z sifatida berish tamoyillari tahlil qilinadi. Xususan, bosh so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari -omonim, sinonim va paronim leksemalarni lug‘at tarkibida berishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: polisemantik leksema, izohli lug‘at, bosh so‘z, leksikografiya, omonim, sinonim, paronim, semantik tahlil, ma‘no taraqqiyoti, leksikografik tamoyillar, ilmiylik, tizimlilik, aniqlik.

Аннотация. В данной статье анализируются принципы придания полисемантических лексем, играющих важную роль в узбекской лингвистике, в качестве заглавных слов в толковых словарях. В частности, выделяются специфические особенности придания типов заглавных слов — омонимов, синонимов и паронимов - в структуре словаря в зависимости от формы и значения заглавного слова.

Ключевые слова: полисемантическая лексема, толковый словарь, заглавное слово, лексикография, омоним, синоним, пароним, семантический анализ, развитие значения, лексикографические принципы, научность, систематичность, точность.

Abstract. This article analyzes the principles of giving polysemantic lexemes, which play an important role in Uzbek linguistics, as headwords in explanatory dictionaries. In particular, the specific features of giving types of headwords - homonyms, synonyms and paronyms - in the dictionary structure are highlighted, depending on the form and meaning of the headword.

Keywords: polysemantic lexeme, explanatory dictionary, headword, lexicography, homonym, synonym, paronym, semantic analysis, meaning development, lexicographic principles, scientificity, systematicity, accuracy.

Kirish

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida leksikografiya sohasining rivoji til boyligini ilmiy asosda o‘rganish va tizimlashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, izohli lug‘atlar tilning leksik qatlamini chuqur yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu lug‘atlarda so‘zlarning ma‘no tuzilishini to‘g‘ri ochib berish, ayniqsa polisemantik leksemalarni izohlash dolzarb masalalardan biridir.

Polisemantik leksemalar bir shakl doirasida bir nechta o‘zaro bog‘liq ma‘nolarni ifodalaydi. Shu sababli ularni izohli lug‘atlarda bosh so‘z sifatida berish maxsus yondashuv va aniq leksikografik tamoyillarni talab etadi.

Tilshunoslikda leksik birliklarning shakl va ma‘no munosabatini o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, polisemantik leksemalarni izohli lug‘atlarda bosh so‘z sifatida berish masalasi leksikografiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Polisemantik leksemalar -bu bitta shaklga ega bo‘lib, bir nechta o‘zaro bog‘liq ma‘nolarni ifodalovchi birliklardir. Bunday leksemalarni to‘g‘ri tavsiflash va izohlash lug‘atning ilmiy darajasini belgilaydi.

Izohli lug'atlarda bosh so'z sifatida beriladigan leksemalar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlicha bo'ladi. Xususan, omonim, sinonim va paronim so'zlar lug'at tuzishda o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Omonimlar shaklan bir xil, ammo ma'nosi o'zaro bog'liq bo'lmagan so'zlar bo'lsa, sinonimlar shaklan turlicha, lekin ma'nosi yaqin bo'lgan birliklardir. Paronimlar esa talaffuzi va yozilishi jihatidan o'xshash, ammo ma'nosi farq qiluvchi so'zlar hisoblanadi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da omonim so'zlarni berishda ular alohida bosh so'z sifatida ajratiladi. Chunki omonimlar o'rtasida semantik bog'liqlik mavjud emas. Omonimlar alohida-alohida so'z sifatida rim raqamlari bilan (nuqtasiz) bosh so'z qilib berilgan. Masalan: ADASH I 1 Ismi boshqa biror kimsa bilan bir xil bo'lgan odam, ismdosh. Biz ikkimiz adashmiz. ADASH II 1 Adashgan, bir poyi alish (almash). Kalishim adash bo'lib qoldi.

DO'Q I Qo'rqitish, cho'chitish, tartibga chaqirish uchun aytilgan gap, qilingan harakat; po'pisa, siyosat. O'g'ri do'qi bilan qo'rqitar, Yomon ayol yig'isi bilan. Maqol.

DO'Q II taql. s. Jarangsiz narsalar-ning urilishidan hosil bo'lgan ovoz. Do'q etgan ovoz eshitildi. Oybek, Tanlangan asarlar.

FARQ I - ajralish, uzoqlashish; ayriliq, judolik. Narsalar orasidagi nomuvofiqlik, noo'xshashlik; ayirma, tafovut. So'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor.

FARQ II Sochning ikki tomonga ajratib tarashdan boshda hosil bo'ladigan yo'l, chiziq. Farq ochmoq. LAMPA I Yoritish uchun ishlatiladigan, yonayotgan (pilikli) qismini o'ziga xos shakldagi shisha qoplab turadigan asbob; chiroq.

LAMPA II Ganch yoki alebastr suzoq qilingan ship.

SAN I s.t. Sen. San o'g'limsan, Yo'lciga mehr bilan tikildi chol. Oy, Tanlangan asarlar.

SAN II [yap. janob] Yaponiyada kimsani hurmatlab, uning ismi yoki familiyasidan keyin qo'llanadigan murojaat shakli.

TABAQALI I Tabaqasi bor, tabaqasi bo'lgan (eshik, deraza va sh.k. haqida). Ikki tabaqali darvoza. kichkina hovlining bir tabaqali pastakina eshigidan kirganlarida, ayvondagi o'choq oldida o'tirgan ayol o'rnidan turdi-da, hovliga yuz o'girdi. P. Tursun, O'qituvchi.

TABAQALI II Muayyan tabaqaga mansub. Past tabaqali. Yuqori tabaqali. Qorbobo Qovoqboyevdan teparoqqa g'ilaylandi: -Janob Qovoqboyevga oliy tabaqali mehmon sifatida gapirsam...

CHIRK I [kir, iflos kirlik, ifloslik] 1 Yog' va qurum aralash yopish-qoq massa; is. Qozonning chirki. Chirk bosib qoraygan uy. Idish yuvadigan, ishchilar qo'l yuvadigan joy chirk bosgan. Gazetadan.

CHIRK II taql. s. Chirillaydigan qush va hasharotlarning ovozi bildiradi.

Tilda ma'nodosh (sinonim) so'zlarning ko'pligi ma'lum. Ularning har birida ayni bir ma'noga izoh berilaversa, lug'atda takroriy izohlarning qay darajada ko'payishiga e'tibor berishning o'zi kifoya. Ana shu holatga yo'l qo'ymaslikka, shu bilan birga, so'zning lug'atda qayd etilgan har bir ma'nosi izohga ega bo'lishini ta'minlashga ikki xil yo'l bilan erishiladi: 1) so'z ma'nosini ta'rif, tushuntirish yo'li bilan izohlash, ya'ni ma'noga izoh berish; 2) so'z ma'nosini boshqa so'zning ma'nosiga havola etish. Bulardan birinchisi so'z ma'nosini izoh bilan ta'minlashning asosiy yo'li bo'lib, so'zning umumiste'molga oid, adabiy tildagi ma'nosi (ma'nolari), albatta, ana shunday izoh bilan ta'minlandi. So'zlar umuman emas, balki ma'nosi, ma'lum ma'nolari bilan sinonim bo'ladi. Shunga ko'ra, izohli lug'atda umuman so'z so'zga emas, balki so'z ma'lum ma'nosi yoki ma'nolari bilan boshqa so'zning ma'nosiga yoki ma'nolariga havola etiladi. Lug'at maqolasida ana shu narsa o'zining aniq ifodasini topishi kerak. Bu lug'atda "ayn." yoki "q" belgisi bilan keltirilgan.

BET ayn. sahifa 1. Gazetaning to'rtinchi beti.

BUKMOQ ayn. buklamoq 1. Salimboyvachcha xatni o'qib, asta bukdi. Oybek, Tanlangan asarlar.
ET ayn. go'sht Mol eti.

IG'VOCHI ayn. ig'vogar. Ig'vochining gapiga kirgan... Gumroh otang men bo'ldim. "Zulfizar bilan Avazxon".

LAQAB ayn. familiya

MAGAR ayn. agar

REZAVOR Mayda-chuyda. Rezavor mollar.

4 ayn. ziravor. Sabzavot, meva hamda rezavorlarning o'zbekcha taniq taomlar tayyorlashda ahamiyati kattadir. K.Mahmudov, O'zbek taniq taomlari.

VENERA [V-katta lot. Venus, Veneris] 1 Qadimgi Rim mifologiyasida sevgi-muhabbat va go'zallik ma'budasi.

2 astr. ayn. Zuhra

Paronim so'zlar esa alohida bosh so'z sifatida berilib, ularning ma'nolari aniq va qisqa izohlanadi hamda zarur hollarda qiyosiy tushuntirishlar beriladi, lekin ular alohida ajratilmaganini ko'rish mumkin:

BOB - eshik, darvoza 1 Kitob, asar va sh.k. ning ma'lum tugallikka ega bo'lgan har bir qismi, fasli. Romanning boblari.

BOP - loyiq, mos, muvofiq 1 To'g'ri keladigan, talab qilingandek: juda mos keladigan, munosib. O'ylab ko'rsam, sarkotib odamga shundan bop sovg'a yo'q ekan. N.Safarov, Hayot maktabi.

DARS - saboq ma'ruza 1 Ta'lim muassasalarida ilm, ma'lumot berish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, saboq. Dars olmoq.

DARZ - chok, chandiq; tor tirqish 1 Yoriq, yorilgan. Darz oyna.

NUFUS aholi xalq ayn. aholi. Shahrimiz nufusi uch millionga yaqinlashdi.

NUFUZ Obro'-e'tibor; ta'sir.

TUS 1 Narsalarga xos bo'lgan rang, rang ko'rinishi. Tusi o'zgarmoq. Tusi oqarmoq. Tusini yo'qotmoq.

TUZ 1 kim. Molekulalari tarkibiga kislota qoldig'i bilan bog'langan metall atomlari kirgan murakkab moddalar.

Bosh so'z ko'p ma'noli bo'lsa, frazeologik iboralardan boshqa iboralar bosh so'zning qaysi ma'nosiga aloqador bo'lsa, shu ma'nosida (shu ma'nosining izohi va unga berilgan misollardan so'ng) berilgan. Frazeologik ibora (iboralar) lug'at maqolasi oxirida berilgan.

ADASHTIRMOQ 1 Adashmoq fl.ort.n. Yo'ldan adashtirmoq.

2 Xato tarzda bir-biriga almashtirmoq, biri o'rniga boshqasini belgilamoq. Kassa bilan kissani adashtirmang. Gazetadan

BELLASHMOQ 1 Bel olishmoq, kuch sinashmoq (kurashda, jangda). Meni kim deb o'yladingiz? Men siz ayt-gan nomardlardan emasman. Kuchingiz bo'lsa, marhamat, maydonga chiqing, bellashamiz. S.Ahmad, Ufq.

2 Musobaqalashmoq, kimo'zar o'ynamoq. Kuydi-pishdi yigit Mo'minov o'z ustozini bilan bellashmoqda. N.Safarov, Olovli izlar.

EFFEKT [lot, effectus harakat, faoliyat; natija] 1 Ish, faoliyat va sh.k. ning natijasi. Iqtisodiy effekt. Ratsionalizatorlik takliflaridan olingan effekt.

2 Moslama, qurilma va sh.k. vositasida muayyan ta'sir, taassurot tug'diruvchi vosita, usul. Shovqin effekti (teatrda).

3 fiz. Fizik hodisa. Fotoelektrik effekt.

FERUZ [g'olib, muzaffar, zafarli; baxtli] 1 Baxtli, toleli; g'olib, muzaffar.

2 O'zbek xalq mumtoz kuylaridan birining nomi (Feruz - Muhammad Ra-himxon II va Muhammad Rahim 1 davrlarida yaratilgan).

3 Feruz (erkaklar ismi).

XATKASH [xatga chiziq tortuvchi] 1 esk. Xat yozib beruvchi; mirza.

2 maxs. Chiziq, yo'l hosil qiladigan qishloq xo'jalik asbobi; marker.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” o'zbek leksikografiyasining muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Biroq zamonaviy tilshunoslik talablari nuqtayi nazaridan uni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Ayniqsa, omonim, sinonim va paronim so'zlarni berishda ayrim jihatlarni rivojlantirish lug'atning ilmiy va amaliy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Avvalo, omonim so'zlarni berishda ularni yanada aniqroq ajratish lozim. Hozirgi lug'atda omonimlar asosan raqamlar orqali farqlansa-da, ayrim hollarda bu tizim izchil qo'llanilmagan. Shu bois barcha omonimlarni yagona tartib asosida raqamlab berish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, sinonim so'zlarni berishda sinonimik qatorlarni kengaytirish va ularni to'liq holda keltirish zarur. Ko'p hollarda faqat 1–2 ta sinonim bilan cheklanilgan. Aslida esa dominant sinonimni aniqlash, sinonimlar o'rtasidagi uslubiy va emotsional farqlarni (ijobiy yoki salbiy bo'yoqlarini) ko'rsatish muhimdir. Shuningdek, sinonimlarni belgilashda yagona va tushunarli tizimni joriy etish, masalan, “sin.” belgisi orqali ifodalash lug'atdan foydalanishni yanada qulaylashtiradi.

Uchinchidan, paronim so'zlarni berishda qiyosiy yondashuvni kuchaytirish zarur. Ularni juftlik yoki guruh tarzida berish, farqlarini aniq izohlash hamda noto'g'ri qo'llanish holatlariga misollar keltirish foydalanuvchi uchun samarali bo'ladi. Masalan, “dars” va “darz” so'zlarini yonma-yon berib, ularning ma'no farqini ko'rsatish tushunishni osonlashtiradi.

Xulosa

Izohli lug'atda omonim, sinonim va paronim so'zlarni berishni takomillashtirish -ularni izchil tartiblash, kengroq izohlash va qiyosiy yondashuvni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa lug'atning ilmiy darajasini oshirish bilan birga, undan foydalanishni yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: 2005.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (I jild). Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi”, 2023.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati (II jild). Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi”, 2023.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati (III jild). Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi”, 2023.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (IV jild). Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi”, 2023.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati (V jild). Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi”, 2023.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati (VI jild). Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi”, 2023.